

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA UQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH PROFILAKTIKASI

Sh.Alijonov

*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
huzuridagi “Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi” talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish masalalari tahlil qilingan. Huquqbuzarliklarning asosiy sabablari, shu jumladan, oilaviy, ijtimoiy, ta’lim va iqtisodiy omillar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, profilaktik choralar sifatida oilaviy tarbiyani yaxshilash, ta’lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish va huquqiy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha takliflar berilgan. Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishning kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, profilaktika, ta’lim, oila, huquqiy nazorat, ijtimoiy muhit, jinoyatchilik, ma’naviy tarbiya, huquqiy madaniyat.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi har qanday jamiyat uchun jiddiy muammo bo‘lib, uning oldini olish huquqni muhofaza qilish organlari, ta’lim muassasalari va butun jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish choralari, sabablarini tahlil qilish va samarali profilaktik mexanizmlarni taklif etish masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda voyaga yetmagan bolalar orasida huquqbuzarliklar sodir etilishi bugungi kunda uchrab turibdi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Republika Sog‘liqni saqlash organlari, boshqa vazirlik va idoralarning statistik ma’lumotlari bilan tasdiqlangan. Dunyo mamlakatlari bo‘yicha o‘smirlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi va hatto voyaga yetmaganlarning o‘ta og‘ir jinoyatlar qotillik, bosqin, ekstremistik oqimlarga qo‘shilib ketishi oxirgi 20 yillikda tobora ortib borayotgani g‘oyat ahamiyatlidir. Biroq, aslida vaziyat statistika ko‘rsatganidan ham ko‘ra ko‘proq bo‘lishi va vaziyat bundanda yomonlashishi mumkin deya ko‘pchilik sotsiolog va psixologlar takidlashmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng jamiyatidagi chuqur ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar mamlakat aholisi uchun ijobiy yangiliklar bilan birga, bir qator ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirdi, xususan yoshlar ongida g‘oyaviy og‘ishlar kuzatilib 1997 -1999 yillarda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar soni keskin ko‘payganini kuztishimiz mumkin, keyingi davrlarda jinoyatchilarning yosh chegarasi kamayib bormoqda, shuning uchun so‘nggi yillarda o‘smirlar va hatto bolalar orasida ham huquqbuzarliklarning ba’zan jinoyatchilikning ham turli ko‘rinishlari namoyon bo‘layotganligi va achinarlisi bu huquqbuzarliklar va jinoyatlar ba’zi hollarda takroran sodir etilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida aytilganlarning barchasi voyaga

yetmaganlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi, bu ehtiyoj hal etishi talab etilayotgan muammo hisoblanadi. Bu masalada mahalliy va xorijiy ilm-fan sohasida bugungi davrda katta hajmdagi nazariyalar ishlab chiqilmoqda, shunday nazariyalardan birida quyidagi omilni voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik va tarbiyaviy buzilishning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida belgilanadi: Voyaga yetmagan huquqbuzar yoki jinoyatchilarning ko‘pchiligi ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nazorat, e’tibor, g‘amxo‘rlik, ijobiy ta’sirdan mahrum bo‘lgan bolalardir. Voyaga yetmaganlar jinoyati ma’lum bir davrda sodir etilishini ko‘rishimiz mumkin Masalan: 14 dan 18 yoshgacha bo‘lganlar jinoyatlari majmui: o‘g‘irlik, talonchilik, mayda bezorilik ba’zan kiberhujumlar. Bunday jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga mos ravishda jazolansa ham biroq ayrim o‘smirlar o‘z qilgan ishlaridan tegishli xulosa chiqarmasdan, qayta jinoyatga qo‘l urishmoqda. Qayta jinoyatlar esa asosan spirtli ichimliklar yoki psixotrop dori vositalarini ichish oqibatida yuzaga kelmoqda, O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish bo‘yicha muayyan tizim mavjud bo‘lib, bu sohada qonunchilikni rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ning "voyaga yetmagan bolalar huquqlari" kabi bo‘limida, "O‘zbekiston Respublikasida bola huquqlarining asosiy kafolatlari to‘g‘risida"gi qonunida Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi va asotsial harakatlarining oldini olish, buning sabablari va oqibatlarini aniqlash va bartaraf etish kabi ishlar tizimli ravishda belgilab berilgan. Respublika qonunchiligida bolalarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha faoliyatning asosiy tamoyillari etib quyidagilar belgilangan: Qonuniylik, demokratizm, insoniylik, oilani qo‘llab-quvvatlash va u bilan hamkorlik qilish; olingan ma’lumotlarning maxfiylikligiga rioya qilgan holda voyaga yetmaganlar bilan ishlashda individual yondashuv; mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarining bolalar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. So‘nggi yillarda o‘smirlar jinoiy jihatdan faol aholi toifasiga aylandi. Jinoyat ishtirokchilarining katta qismi: umumta’lim maktablari o‘quvchilaridir. Statistika e’tibor beradigan birgina 2024-yilda maktab o‘quvchilari o‘rtasida huquqbuzarliklar 27%ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Tergov qilinganlarning jinoiy harakatlar majmuasining strukturasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, eng keng tarqalgan jinoyatchilik turlari o‘g‘irlik va boshqa birovning mol-mulkini o‘g‘irlash maqsadida zo‘ravonlik yoki bosqinchilikdir. Tabiiyki, o‘smirlik davridagi huquqbuzarliklarni o‘z ichiga olgan har qanday hodisa o‘z sabablariga ega. Yosh o‘smirni jinoiy yo‘lga kirishga nima majbur qiladi? Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligiga quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

1) Oila muhitining salbiy ta’siri – ota-onalar tomonidan yetarlicha e’tibor berilmasligi, oiladagi nizolar, ajralishlar va moddiy muammolar.

2) Ijtimoiy muhit – voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikka moyil do‘stlari bilan aloqa qilishi, internet va ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siri.

3) Ta’lim va tarbiya kamchiliklari – maktab va kollej tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yetishmovchiligi, ta’lim sifati pastligi.

4) Iqtisodiy omillar – ishsizlik, moddiy nochorlik va yoshlar orasida bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish imkoniyatlarining cheklanganligi.

Dunyodagi ijtimoiy-ma’naviy, madaniy o‘zgarishlar aholining boshqa toifalariga qaraganda ko‘proq balog‘atga yetmagan bolalarga ta’sir ko‘rsatdi, negaki ular yangiliklarga doimo intilib yashashi, internet sabab dunyo yangiliklarning integratsiyalashuvi yoshlarga bugungi kunda bu imkoniyatni yaratmoqda. Voyaga yetmaganlarning aksariyati 14-18 yosh orasida turli kibero‘yinlar sabab stress, atrofga nisbatan befarqlik holatini boshdan kechirmoqda. So‘ngi vaqtda maktablarda sovuq qurol (pichoq, Lizviya) olib yurish ayniqsa o‘quvchilar orasida keng tarqaldi. Bu esa o‘smirlar jinoyatchiligini kuchayishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Internet orqali esa yoshlarni uyushgan jinoyatchilikka, ekstremistik guruhlariga jalb qilish muammosi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning ko‘payib borayotganligining yana bir sababi So‘nggi yillarda hayotimizda ijtimoiy tarmoqlarning sezilarli darajada ta’sir o‘tkazayotganligi ko‘plab odamlar ayniqsa, voyaga yetmaganlarning ongida turli yod g‘oyalar ta’siriga berilish, odatiy hayot belgilari, ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan ishonch, oilaviy munosabatlar va boshqa aloqalar sezilarli darajada zaiflashib, ijtimoiy nazorat imkoniyatlarini sezilarli darajada kamayib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin, oxirgi 10 yillikda uyali aloqa apparati voyaga yetmaganlar uchun ayniqsa xavfli bo‘lgan ommaviy qirg‘in elektron quroliga aylandi telefon va internet orqali zo‘ravonlik va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o‘rtasida ba‘zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjuddir bugungi kunda ko‘pgina ota-onalar, o‘z navbatida, bolalarni tarbiyalashdan ko‘ra ko‘proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazmoqdalar. Bugun oilalarda teleko‘rsatuvlarni yoki chet el seriallarini tomosha qilish ota-onalarning farzandlari bilan muloqoti o‘rnini egallashi o‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Oila muhitini yaxshilash

- Ota-onalar uchun maxsus psixologik va pedagogik seminarlar tashkil qilish.
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan ishlash va ularga yordam ko‘rsatish.
- Oilaviy nizolarni bartaraf etish uchun maslahat markazlari faoliyatini kengaytirish.

2. Ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish

-Maktab va kollej o‘quvchilariga huquqiy bilimlarni o‘rgatish va huquqiy savodxonlik bo‘yicha maxsus darslarni joriy etish.

-Yoshlarni ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish.

-Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga imkoniyatlar yaratish.

3. Ijtimoiy muhitni yaxshilash

-Yoshlar uchun sport va madaniy tadbirlarni ko‘paytirish, ular ishtirok etadigan klublar, to‘garaklar sonini oshirish.

-Yoshlarni band qilish uchun turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish.

-Huquq-tartibot organlari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

4. Huquqiy nazorat va profilaktika tizimini takomillashtirish

-Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni kuchaytirish.

-Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘limlari faoliyatini rivojlantirish.

-Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni oshirish bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish davlat va jamiyatning uzviy hamkorligi natijasida amalga oshirilishi kerak. Oila, ta’lim muassasalari, huquq-tartibot organlari va ijtimoiy tashkilotlarning birgalikdagi harakatlari natijasida yoshlar orasidagi huquqbuzarlik darajasini kamaytirish va ularni foydali faoliyatga yo‘naltirish mumkin. Umuman olganda, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish – uzoq muddatli va doimiy e’tibor talab qiladigan jarayondir. Bu borada davlat, jamiyat, oila va ta’lim muassasalari birgalikda harakat qilishi zarur. Faqat shundagina biz kelajak avlodning ma’naviy yetuk, qonunlarga hurmat bilan qaraydigan va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlay olamiz. Profilaktika choralari faqat jazolashga emas, balki yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash va ularga ijobiy muhit yaratishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

3.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.

4.O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.

5.G‘ofurov U., Yo‘ldoshev S. “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va huquqiy targ‘ibot masalalari.” – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2019.

6.O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar. – Toshkent, 2023.

7.Jahon tajribasi asosida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar: BMTning bolalar huquqlari bo‘yicha Konvensiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar.

8. Mustaqil ekspertlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tahliliy maqolalar va internet manbalari.